

“Talabalik qasamyodi”ga bag‘ishlangan ijodiy bayram tadbiri



O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti O‘quv teatri binosida Teatr san‘ati fakultetining 1-bosqich talabalari tomonidan tayorlangan “Talabalik qasamyodi”ga bag‘ishlangan ijodiy bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi.



Tadbirda Yoshlar masalalari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor Eldor Shermonov so'zga chiqib, bu yil talabalikka qabul qilingan yoshlarni tabrikladi va ularni kelgusi o'qishlarida muvaffaqiyatlar tiladi.



O'z o'rnida talabalik maqomiga ega bo'lgan o'g'il-qizlar O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlarida berilgan fuqarolik huquq va burchlarini bajarish, institut ichki tartib-qoidalariga so'zsiz amal qilishga, zimmasiga yuklangan vazifalarni sidqidildan bajarish, talabalik maqomiga munosib bo'lishga qasamyod qilishdi. Bayram tadbirida talabalar tomonidan tayyorlangan qo'shiqlar ijro qilindi.



Turli teatrlashtirilgan sahna ko'rinishlari, raqslar namoyish etildi.



Xabaringiz bor, talabalar o'rtasida "Yil talabasi" ko'rik tanlovining institut bosqichi bo'lib o'tgan edi.



Tadbir doirasida g'oliblarni taqdirlash marosimi ham bo'lib o'tdi.



“Yilning o‘z mutaxassisligi bo‘yicha eng bilimdon talabasi”,
“Yilning eng faol tashabbuskor-targ‘ibotchi talabasi”,
“Yilning eng faol ixtirochi-innovator talabasi”, “Yilning eng
faol sportchi talabasi”, “Yilning eng faol ijodkor talabasi”,
“Yilning eng bloger talabasi”, “Yilning eng namunali
tadbirkor talabasi” nominatsiyalari bo‘yicha g‘oliblikni
qo‘lga kiritgan talabalar tantanali ravishda diplom, ishonsh
yorlig‘i, tashakkurnoma bilan taqdirlandi.

Matbuot kotibi